

## Ilmiy-amaliy hamkorlik-bugunning talabidir.

Hozirgi ilm-fan taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir pallada yirik ilm dargohlarining o`zaro ilm-fan, madaniy-ma`rifiy shu bilan bir qatorda zamonaviy texnika va texnologiyalar hamda ulardan foydalanish shu bilan bir qatorda erishilgan yuqri natijalarni amaliyotda qo`llash, o`zaro integratsiyalashish zamonning talabai bo`lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan 20.01.2023 sanada B-bino "Agrobank" auditoriyasida "TIQXMMI"-MTU "Suv xo`jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti hamda Toshkent davlat transport universiteti "Iqtisodiyot" fakulteti bilan ilm-fan, fakultet kafedralari o`rtasida ilmiy hamkorlik shu bilan bir qatorda o`zaro tajriba almashish, ilmiy jabhada erishilayotgan yutuqlar, tajribalar almashish bo`yicha hamkorlik uchrashuvi bo`lib o`tdi.





Ushbu uchrashuvda “SXTE va B” fakulteti dekani R.Xakimov soʻz boshlab mehmonlarning tashrifidan, yoʻlga qoʻyilayotgan ilmiy hamkorlik uchun Transport universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti dekani va boshqa mehmonlarga oʻz minnatdorchiligini izhor etdi.

Oʻz oʻrnida Transport universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti dekani M.Masharipov ushbu amalga oshirilayotgan ilmiy hamkorlik ikki universitet uchun kelajakda yuqori marralarni egallashda muhim bir debocha boʻlishi taʼkidlab Transport universiteti rahbariyati ushbu hamkorlik uchun tayyor ekanligini mamnuniyat bilan bildirdi.

**“TIQXMMI”-MTU matbuot xizmati**

**Maʼlumot beruvchi “SXTE va B” fakulteti dekani oʻrinbosari I.Xolbutayev**